XALQ DEPUTATLARI QO'SHRABOT TUMAN KENGASHI QARORI

140900, Qo'shrabot sh., G'afur G'ulom ko'chasi, 3-uy, tel: (0-366) 646-15-18, e-mail: qoshrabot.t@exat.uz

2023 - yil 22 - dekabr VI-77-158-7-97-K/23 Qo'shrabot tuman hokimligi

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 30–dekabrdagi "Qo'shrabot tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-56-176-7-97-K/22-sonli qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 148-moddasiga asosan hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq yetmish yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i v.v.b M.Toyirovning "Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 30–dekabrda "Qo'shrabot tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-56-176-7-97-K/22-sonli qaroriga o'zgartirish kiritish yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 30–dekabrda "Qo'shrabot tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-56-176-7-97-K/22-sonli qarori 1-ilovasi ilovaga asosan o'zgartirilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Toyirov), tuman G'aznachilik xizmati bo'limi(K.Tagayev) qaror bo'yicha tegishli bandlar bo'yicha o'zgartirishlar kiritsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining birinchi o'rinbosari (I.Sayfiddinov), bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (B.Shukurov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Toshbekovich I. A.**

Xalq deputatlari Qo‘shrabot tuman
Kengashining
2023-yil 22-dekabrdagi
VI-77-158-7-97-K/23-son qaroriga
1-ilova

“Xalq deputatlari Qo‘shrabot tuman Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi VI-56-176-7-97-K/22-son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Jami (Ming so‘mda)
JAMI		**88 923 825,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	26 617 250,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	2 693 400,0
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 402 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 704 000,0
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*26 000,0*
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 604 575,0
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	380 000,0
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	18 289 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	4 436 600,0
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	4 530 000,0
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	1 536 000,0
12	Yig‘imlar	303 000,0
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	63 000,0
14	Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha) Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	9 037 000,0
15	Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha) Mobil aloqa xizmati	3 877 000,0
16	Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha) Sigaret uchun aksiz solig‘i	9 425 000,0

”